

**Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi faoliyati
tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
Uslubiy nizom**

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda—Uslubiy nizom) dehqon va tomorqa xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi faoliyati statistika kuzatuvini tashkil etish uchun tanlanma to'plamni shakllantirish tartibini, o'rganiladigan asosiy ko'rsatkichlarning hisob kitobi, shuningdek, tanlanma kuzatuv ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish va kuzatuv natijalarini O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi bo'yicha tegishli yil yakunlari uchun hisob-kitoblarda foydalanish tartibini o'z ichiga olgan metodik material hisoblanadi.

Uslubiy nizom asosiy turdagi dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmlari, qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari bosh soni to'g'risidagi birlamchi tezkor statistik ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida axborotlarni yig'ishni tashkil etish va o'tkazishning asosiy yondoshuvlarini belgilaydi.

Tanlanma kuzatuvni o'tkazish mexanizmi tanlanma kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari bo'yicha ifodalangan va davlat statistika organlari tomonidan tegishli hisobot davrida asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hisob-kitoblarini amalga oshirish imkonini beruvchi ishonchli statistik ma'lumotlarni olish uchun mo'ljallangan.

Mazkur Uslubiy nizomni ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligi sohasidagi, xususan, dehqon va tomorqa xo'jaliklariga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tavsiyalaridan, BMTning Statistika bo'limi iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Departamentining uy xo'jaliklari kuzatuvlari uchun tanlov rejasini tuzish, shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlatlararo statistika qo'mitasi (MDH statistika qo'mitasi) bo'yicha amaliy tavsiyalaridan foydalanilgan.

Kuzatuvlarni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan "Statistika dasturi" qonuniy asos bo'lib hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish respublika va hududiy darajada statistika kuzatuvi so‘rovnomasida o‘rnatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

2. Agar kuzatuv kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelsa, unda dam olish kunidan keyingi birinchi kun kuzatuv o‘tkazish kuni hisoblanadi.

3. Mazkur uslubiy nizomda quyidagi muhim tushunchalar qo‘llaniladi:

Dehqon xo‘jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo‘jaligi a‘zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo‘jalikdir.

Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatini bog‘dorchilik va uzumchilikka yoki sabzavot va poliz ekinlarini yoxud boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashish asosida amalga oshiradi.

Dehqon xo‘jaligining faoliyati tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi va dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda ham, yuridik shaxs tashkil etmasdan ham amalga oshirilishi mumkin (*O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2021-yil 1-aprel, O‘RQ-680*).

Tomorqa xo‘jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog‘liq mehnat faoliyatidir.

Tomorqa xo‘jaligi tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi va tomorqa xo‘jaligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab etilmaydi. Tomorqa xo‘jaligida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish (qayta ishlash) bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi shaxs aholi bandligi to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs maqomini olishi mumkin.

Tomorqa xo‘jaligini yuritish uchun ajratilgan shaxsiy tomorqa yer uchastkasida yetishtirilgan (qayta ishlangan) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xususiy mulkdir (*O‘zbekiston Respublikasining “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2021-yil 1-aprel, O‘RQ-681*).

Bosh to‘plam – o‘rganiladigan obyektning istisnosiz barcha birliklari, tadqiqot maqsadiga mos keladigan barcha birliklar yig‘indisi.

Tanlanma to‘plam – maxsus metod bilan tanlab olingan va barcha bosh to‘plamni tavsiflash uchun mo‘ljallangan bosh to‘plam birligining bir qismi.

4. Kuzatuvlar maxsus statistika kuzatuvi so'rovnomasidan foydalangan holda dehqon va tomorqa xo'jaliklari boshliqlari yoki a'zolaridan intervyu olish usuliga asoslanadi va unda tanlab olingan dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ixtiyoriy ravishda qatnashishi asosida o'tkaziladi.

5. Kuzatuv davrida olingan ma'lumotlar asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha tumanlar va shaharlar kesimida dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatining quyidagi umumiy ko'rsatkichlari shakllantiriladi:

a) asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili:

- don va dukkakli don ekinlari;
 - shu jumladan, boshqoli don ekinlari;
 - shundan:**
 - bug'doy;
 - arpa;
 - boshqa boshqoli don ekinlari;
 - makkajo'xori, don uchun;
 - sholi;
 - dukkakli don ekinlari;
 - boshqa don va dukkakli don ekinlari;
 - kartoshka;
 - sabzavotlar;

shu jumladan:

- pomidor;
- bodring;
- baqlajon;
- qalampir;
- sabzi;
- sholg'om;
- turp;
- oziqbop lavlagi;
- piyoz;
- sarimsoq;
- karam;
- boshqa sabzavot ekinlari;
- poliz;
- mevalar va rezavorlar;

shu jumladan:

- olma;
- nok;
- olxo‘ri;
- olcha;
- gilos;
- o‘rik;
- shaftoli;
- anjir;
- qulupnay;
- limon;
- boshqa mevalar va rezavorlar;
- uzum.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili asosiy, takroriy, oraliq, qator oralari ekinlari va yopiq yerlardan, dastlabki kirim qilingan (fizik) vaznda yil boshidan o‘sib boruvchi yakunda hisobga olinadi.

b) quyidagi, asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va barcha turdagi parrandalar bosh soni:

- yirik shoxli qoramollar;
 - shundan, sigirlar;
- qo‘y va echkilar;
- cho‘chqalar;
- otlar;
- parrandalar.

Qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalar bosh soni kuzatuv kuniga hisobga olinadi.

v) quyidagi, asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish:

- go‘sht tirik vaznda;
- sut;
- tuxum;
- jun;
- qorako‘l teri;
- asal;
- ovlangan baliqlar.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmlari yil boshidan o‘sib boruvchi yakunda hisobga olinadi.

2-bob. Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari tanlanma to‘plamini shakllantirish

6. Tanlanma kuzatuv hisobot yilining 1-aprel va 1-oktyabr holatiga respublikaning barcha tumanlari va shaharlaridagi kuzatuvlar uchun tanlab olingan dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida o‘tkaziladi.

7. Har bir tuman, shahar bo‘yicha tanlanma to‘plamni shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

8. **Tanlash va kuzatuv birligi** bo‘lib, faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs tashkil etgan va yuridik shaxs tashkil etmagan dehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari hisoblanadi.

9. Tanlanma to‘plamni shakllantirishda to‘ldirilgan so‘rovnomalar natijasida olinadigan ma’lumotlarning ishonchliligi hisobga olinadi. Tanlanma to‘plamni shakllantirish uchun asos sifatida, ular o‘rganiladigan turdagi mahsulotlarni yetishtirishi yoki yetishtirmasligi va ularda o‘rganiladigan turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalar bosh soni mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat’iy nazar faoliyat yuritayotgan barcha dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining sonidan (bosh to‘plam), foydalaniladi.

1-§. Yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari tanlanma to‘plamini shakllantirish

10. Yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklarining birgalikdagi tanlanma to‘plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha ularda faoliyat yuritayotgan barcha yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklarining sonlari ko‘rsatilgan holdagi tumanlar va shaharlar ro‘yxati shakllantiriladi (1- va 6 -ilovalar).

11. Yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari sonlarini aniqlash uchun 1-yanvar holatiga ko‘ra 2 dx shakli “Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risida hisobot” statistika hisoboti ma’lumotlaridan foydalaniladi.

12. Tuman va shaharlarda yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari sonlarining har xilligini hisobga olib, tanlanma to‘plamni shakllantirishda tanlash foizi tegishli tumandagi yoki shahardagi

ularning sonlariga mutanosib ravishda aniqlanadi, bunda barcha tuman va shaharlarda kuzatiladigan yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklarining bir xildagi sonlarini tanlash ta’minlanadi.

Masalan, tumanda jami 8544 birlik yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari mavjud (bosh to‘plam), 1-jadval ma’lumotlari bo‘yicha mazkur tumanda bitta davrda kuzatuv o‘tkazish uchun tanlash foizi 1,1 foizni tashkil qiladi, shunday qilib, kuzatuvlarni o‘tkazish uchun tuman bo‘yicha 94 ($8544 / 100 \times 1,1 = 94$) ta yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari (tanlanma to‘plam) tanlab olinadi (2-ilova).

Kuzatuvlarni o‘tkazish uchun yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklarining sonlarini aniqlash tamoyillari mazkur Uslubiy nizomning 1-jadvali va 2-ilovasida ifodalangan.

1-jadval

**Yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari
va tomorqa xo‘jaliklarini ularning tuman
va shaharlardagi sonlariga qarab tanlash**

T.r.	Xo‘jaliklarni ularning tuman va shaharlar bo‘yicha sonlariga qarab guruhlash	Tanlash foizi	
		birinchi kuzatuv davrida	ikkinchi kuzatuv davrida
1	1500 gacha	6,0	6,0
2	1501 - 2000	5,0	5,0
3	2001 - 3000	3,5	3,5
4	3001 - 4000	2,5	2,5
5	4001 - 5000	2,0	2,0
6	5001 - 7000	1,5	1,5
7	7001 - 9000	1,1	1,1
8	9001 - 12000	0,8	0,8
9	12001 - 15000	0,6	0,6
10	15001 - 20000	0,5	0,5
11	20001 - 27000	0,4	0,4
12	27001 - 34000	0,3	0,3
13	34001 - 39000	0,25	0,25
14	39001 - 52000	0,2	0,2
15	52001 - 65000	0,16	0,16
16	65001 - 79000	0,13	0,13
17	79001 va yuqori	0,1	0,1

13. **Ikkinchi bosqichda** birinchi bosqichda hisoblangan xo‘jaliklar soniga asosan har bir tuman va shahar bo‘yicha mazkur Uslubiy nizomning 12-bandida ifodalangan tamoyillarga muvofiq yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklarini tanlash (tanlanma to‘plam) amalga oshiriladi.

Kuzatuvlarni o‘tkazish uchun mahalla fuqarolar yig‘inlarini tanlash hududiy statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi.

14. Kuzatiladigan yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari sonining kuzatuvlarda tuman yoki shahar hududini iloji boricha to‘liq qamrab olishini va har xil nuqtalarda joylashishini ta‘minlash uchun ular bir nechta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan tanlab olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari kuzatuvlarini yagona bitta mahalla fuqarolar yig‘inida o‘tkazishga diqqat e‘tiborni qaratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

15. Kuzatuvlarni o‘tkazish uchun bitta mahalla fuqarolar yig‘inidan tanlab olingan yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklarining soni tuman yoki shahar bo‘yicha tanlab olingan xo‘jaliklar umumiy sonining kamida 25 foizini tashkil qilishi zarur.

Masalan, tuman bo‘yicha kuzatuvlar uchun 94 birlik xo‘jaliklar tanlab olingan, bunda tanlov to‘rtta mahalla fuqarolar yig‘inlarida amalga oshiriladi.

Mahalla fuqarolar yig‘inlarining umumiy soni 3-4 birlikni tashkil qiladigan tuman va shaharlarda, har bir kuzatuv davrida kuzatuv uchun tanlab olingan xo‘jaliklarning soni bo‘yicha barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari kuzatiladi.

16. Mahalla fuqarolar yig‘inlariga keyingi kuzatuv davrida takroran tashrif buyurilganda, oldingi davrda kuzatilgan yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari kuzatilmaydi. Agar, tuman yoki shahar bo‘yicha barcha fuqarolar yig‘inlaridagi mavjud xo‘jaliklar soni kuzatuv uchun belgilangan sondan kam bo‘lsa, yuridik shaxs tashkil etmagan dyehqon xo‘jaliklari va tomorqa xo‘jaliklari takroran kuzatiladi.

17. Respondentning so‘rov o‘tkazishda ishtirok etishni rad etgan hollarida tanlovga kiritilgan xo‘jalikni almashtirish mumkin, chunki olingan axborotlarning to‘g‘riligi va ishonchliligi so‘rovnoma savollariga berilgan javoblarning samimiyligi hamda aniqlilik darajasiga bog‘liq. Imkon qadar almashtirilayotgan xo‘jalik ko‘rsatkichlariga yaqin yoki unga deyarlik o‘xshash o‘lchamdagi xo‘jalik tanlanadi.

2-§. Yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklari tanlanma to‘plamini shakllantirish

18. Yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklari tanlanma to‘plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha ularda faoliyat yuritayotgan barcha yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklarining sonlari ko‘rsatilgan holdagi tumanlar va shaharlar ro‘yxati shakllantiriladi (3- va 7 -ilovalar).

19. Yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklari sonlarini aniqlash uchun 1-yanvar holatiga ko‘ra 2 dx shakli “Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risida hisobot” statistika hisoboti va Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma’lumotlaridan foydalaniladi.

20. Tuman va shaharlarda yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklari sonlarining har xilligini hisobga olib, tanlanma to‘plamni shakllantirishda tanlash foizi tegishli tumandagi yoki shahardagi ularning sonlariga mutanosib ravishda aniqlanadi, bunda barcha tuman va shaharlarda kuzatiladigan yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklarining bir xildagi sonlarini tanlash ta’minlanadi.

Masalan, tumanda jami 121 birlik yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklari mavjud (bosh to‘plam), 2-jadval ma’lumotlari bo‘yicha mazkur tumanda bitta davrda kuzatuv o‘tkazish uchun tanlash foizi 34,5 foizni tashkil qiladi, shunday qilib, kuzatuvlarni o‘tkazish uchun tuman bo‘yicha $42 (121 / 100 \times 34,5 = 42)$ ta yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklari (tanlanma to‘plam) tanlab olinadi (4-ilova).

Kuzatuvlarni o‘tkazish uchun yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklarining sonlarini aniqlash tamoyillari mazkur Uslubiy nizomning 2-jadvali va 4-ilovasida ifodalangan.

21. **Ikkinchi bosqichda** birinchi bosqichda hisoblangan xo‘jaliklar soniga asosan, har bir tuman va shahar bo‘yicha mazkur Uslubiy nizomning 20-bandida ifodalangan tamoyillarga muvofiq yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklarini tanlash (tanlanma to‘plam) amalga oshiriladi.

22. Yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaligining so‘rovnomani to‘ldirishda ishtirok etishni rad etgan hollarida tanlovga kiritilgan obyektни almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaliklarini ularning
tuman va shaharlardagi sonlariga qarab tanlash**

T.r.	Xo‘jaliklarni ularning tuman va shaharlar bo‘yicha sonlariga qarab guruhlash	Tanlash foizi	
		birinchi kuzatuv davrida	ikkinchi kuzatuv davrida
1	50 gacha	100,0	100,0
2	51 - 100	50,5	50,5
3	101 - 150	34,5	34,5
4	151 - 200	25,5	25,5
5	201 - 300	17,5	17,5
6	301 - 400	13,5	13,5
7	401 - 500	10,5	10,5
8	501 - 600	9,5	9,5
9	601 - 700	7,5	7,5
10	701 - 800	6,5	6,5
11	801 - 900	6,0	6,0
12	901 - 1000	5,5	5,5
13	1001 - 1500	3,5	3,5
14	1501 - 2000	3,0	3,0
15	2001 va undan ko‘p	2,5	2,5

3-bob. Tayyorgarlik ishlari

23. Tayyorgarlik tadbirlari va kuzatuvlarning borishi monitoringini o‘tkazish Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri statistika boshqarmalari tomonidan ta’minlanadi.

Tayyorgarlik ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasida supervayzerlarni va tuman va shahar darajasida intervyuyerlarni tayinlash va Tashrif rejasini tayyorlashni o‘z ichiga oladi.

24. Ma’lumotlarni yig‘ishni rejalashtirish (tashrifni rejalashtirish), tegishli mahalla fuqarolar yig‘ini va yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaligi bilan kelishuv bo‘yicha intervyuyerlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, mahalla fuqarolar yig‘ini rahbari va yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaligi boshlig‘i mazkur mahalla fuqarolar yig‘ini i yuridik shaxs tashkil etgan dyehqon xo‘jaligi kuzatuv rejasiga kiritilganligi, shuningdek, kuzatuvning maqsadi va vazifalari va uni o‘tkazish muddatlari to‘g‘risida xabardor qilinadi.

4-bob. So'rov o'tkazish va ma'lumotlarga ishlov berish

25. Kuzatuvlar, kuzatuv so'rovnomasiga asosan maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot o'rnatilgan planshet qurilmasi yordamida amalga oshiriladi.

Planshetga kiritilgan ko'rsatkichlar avtomatik tarzda Davlat statistika qo'mitasining elektron ma'lumotlar bazasiga uzatiladi va u yerda axborotlarga standart dasturiy vosita yordamida ishlov beriladi.

26. So'rovlar, qat'iy ravishda kuzatuvlar uchun tanlab olingan barcha dehqon va yordamchi xo'jaliklarni qamrab olgan holda, barcha tuman, shaharlar bo'yicha o'tkaziladi.

Intervyuyer savollarga javob olish uchun borganida respondentni (u xo'jalik boshlig'i yoki ular bo'lmaganda xo'jalikni yaxshi biladigan a'zosi bo'lishi mumkin) aniqlab oladi. Respondentning kuzatuvda ishtirok etishga roziligini olganidan so'ng, intervyuyer so'rov o'tkazishga kirishadi.

27. So'rov o'tkazayotgan intervyuyer, xo'jalikning o'zida turib so'rovnomaning to'ldirishi va uning to'g'ri to'ldirilganligini nazorat qilishi zarur.

28. So'rovnoma ko'rsatkichlarini to'ldirishda, unga kiritilgan barcha ko'rsatkichlar va raqamli belgilarining to'liq hajmda to'g'ri to'ldirilishiga ahamiyat berish kerak.

29. **“Qishloq xo'jaligi ekinlarining, mevalar, rezavorlar va uzumning yig'ib olingan yalpi hosili”** ko'rsatkichlarini to'ldirishda, ularning saqlash uchun joylashtirilganligidan, oziq-ovqat yoki mollarni oziqlantirish uchun foydalanilganligidan yoki sotilganligidan qat'iy nazar, ekin yerlari va bog'larning barcha mahsulotlarini hisobga olish zarur.

30. Kuzatiladigan alohida ekinlar bo'yicha quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

sabzavotlar bo'yicha yalpi yig'imgacha va undan keyingi qisman yig'imni qo'shgan holda, ochiq va yopiq yerlardan yig'ilgan hosil ko'rsatiladi;

konservalash, barra holida oziq-ovqat uchun foydalanilgan sut va sut-mum pishish davridagi qand makkajo'xori so'talari ham sabzavotlar guruhida ko'rsatiladi;

sabzavot-poliz ekinlari va piyoz urug'zorlari, sabzavotlarning yalpi hosiliga kiritilmaydi, lekin bir yillik sabzavotlar qisman (tanlab) urug'lik uchun foydalanilganda, ularning hosili to'lig'icha sabzavotlar guruhida ko'rsatiladi;

makkajo'xori xo'jalikda foydalanish turi bo'yicha, ya'ni don uchun ishlab chiqarilgani-don ekinlari hisobida (to'liq pishish davridagi so'talarning quruq donga qayta hisoblangan vazni) ko'rsatiladi;

Yopiq yerlardagi qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili tegishli ekinlarning umumiy yalpi hosili bilan birgalikda ko'rsatiladi.

31. **“Mollar va parrandalar bosh soni”** ko'rsatkichini to'ldirish fizik birlikda (boshda) butun sonda amalga oshiriladi.

Xo'jalikdagi mavjud asosiy turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalari, ularning yaylovda yoki xo'jalikdan tashqari boshqa joylarda bo'lishidan qat'iy nazar hisobga olinishi zarur.

O'g'irlangan yoki nobud bo'lgan qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalar mavjud bosh songa qo'shilmaydi. Boshqa xo'jaliklardan ularning topshirig'iga asosan sotish uchun qabul qilingan mollar va parrandalar ham hisobga olinmaydi.

Sigirlar soniga, asosiy podadagi sut va go'sht yo'nalishidagi, sutdan chiqqan va qisir, oziqlantiruvchi sigirlarning barchasi kiritilishi zarur. Sigirlar soniga bo'rdoqilash yoki yaylovda boqish uchun o'tkazilgan sigirlar kiritilmaydi.

32. **“Go'sht, tirik vaznda”** ko'rsatkichini to'ldirishda, so'yish uchun sotilgan, o'z xo'jaligida so'yilgan barcha qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vazni qo'shiladi. Kelgusida takror ishlab chiqarish uchun sotilgan yosh mollar, so'yish uchun sotish hajmiga qo'shilmaydi.

33. **Sut yetishtirish** og'iz sutini qo'shgan holda, yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar tomonidan onalaridan emilgan sut yalpi ishlab chiqarishga qo'shilmaydi.

34. **Tuxum yetishtirish** barcha turdagi parrandalardan olingan, singan, buzilgan va h.k.larni qo'shgan holda, shuningdek, kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxum miqdorlarini o'z ichiga oladi.

35. **Jun yetishtirish** xo'jalikning ichki ehtiyojlari uchun foydalanilgani, shuningdek, junni saqlash va tashish jarayonida yo'qotilganini qo'shgan holda, qo'y, echki, tuyalardan qirqib olingan tabiiy (qirqib olingandan keyingi) vazndagi barcha jun miqdorlarni o'z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo'shiladi.

36. **Qorako'l teri yetishtirish** uch kunligida so'yilgan qorako'l zotli qo'zilarining terilarini o'z ichiga oladi, bunda asosiy mahsulot qorako'l teri hisoblanadi, olingan go'sht so'yish uchun sotish hajmiga qo'shilmaydi.

37. **Asal yetishtirish** asalarilar tomonidan yig'ilgan, uyalardan chiqarib olingan, asalarilarga qishki-bahorgi davrlarda ozuqa uchun qoldirilgan asal miqdorini o'z ichiga oladi.

38. **Baliqchilik mahsuloti** tabiiy va sun'iy suv havzalaridan ovlangan baliq mahsulotlari miqdori bilan aniqlanadi.

5-bob. Tanlanma ma'lumotlarni bosh to'plamga tarqatish

39. Dehqon va tomorqa xo'jaliklari kuzatuv natijasida olingan tanlanma ma'lumotlarni bosh to'plamga tarqatish, tuman, shahar darajasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha avtomatlashtirilgan tarzda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturiy ta'minotdan foydalangan holda amalga oshiriladi.

40. Tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish har bir tuman va shahar va so'rovnomaning har bir ko'rsatkichi bo'yicha tanlov foiziga mutanosib ravishda amalga oshiriladi (misollar 5-ilovada ko'rsatilgan).

Masalan (bug'doy misolida), tuman bo'yicha dehqon va tomorqa xo'jaliklarining umumiy soni 8544 birlikni tashkil qiladi, shundan kuzatuvlar uchun 1,1 foiz xo'jalik yoki 94 birlik tanlab olingan.

Kuzatuv o'tkazilgan 94 xo'jalik bo'yicha umumiy hajmda 60 sentner bug'doy hosili olingan (q).

Yig'ib olingan bug'doy yalpi hosili bo'yicha tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga (G) tarqatish quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$Q = \frac{q * 100}{w},$$

bu yerda Q – bosh to'plamdagi bug'doy yalpi hosilining yig'indisi, sentner;
 q – tanlanma to'plamdagi bug'doy yalpi hosili hajmining yig'indisi, sentner;

w – bosh to'plamdan (G) tanlanma to'plamdagi xo'jaliklarning tanlash foizi.

$$Q = \frac{60 * 100}{1,1} = 5454,5 \text{ sentner.}$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko'ra, tuman bo'yicha bosh to'plamdagi bug'doyning yalpi hosili baholashga ko'ra 5454,5 sentnerni tashkil qiladi.

41. Xuddi shu tarzda, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari bo'yicha so'rovnomaning boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha kuzatuv ma'lumotlari bosh to'plamga tarqatiladi.

6-bob. Ma'lumotlarni chop etish va tarqatish

42. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi faoliyati statistik kuzatuvlari natijalari bo'yicha ma'lumotlar maxsus statistika byulletenlari va to'plamlari tarkibida tahliliy statistika jadvallari ko'rinishida chop etiladi

va foydalanuvchilarning soʻrovlari, xalqaro tashkilotlar soʻrovnomalari boʻyicha taqdim etiladi va Davlat statistika qoʻmitasining veb-saytiga joylashtiriladi.

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
1-ILOVA

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha tumanlar va shaharlar ro'yxati,
ulardagi faoliyat yuritayotgan dehqon va tomorqa xo'jaliklari soni ¹⁾
(bosh to'plam, N)**

(misol shartli)

MHOBT	Hududlar nomi	Dehqon va tomorqa xo'jaliklari soni, birlikda
1735	Qoraqalpog'iston Respublikasi	263986
	tumanlar va shahar	-
1735204	Amudaryo	32185
1735207	Beruniy	21734
1735211	Qorao'zak	7771
1735212	Kegayli	11469
1735215	Qo'ng'iro't	19431
1735218	Qanliko'l	5962
1735222	Mo'ynoq	4570
1735225	Nukus	8544
1735228	Taxiyatosh	9094
1735230	Taxtak'o'pir	5259
1735233	To'rtko'l	35124
1735236	Xo'jayli	21394
1735240	Chimboy	17450
1735243	Sho'manoy	7147
1735250	Ellikqal'a	24130
1735401	Nukus sh.	32722

¹⁾ Ro'yxat har bir tuman, shahar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri kesimida tuziladi.

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
2-ILOVA

**Dehqon va tomorqa xo'jaliklarini ularning tuman
va shaharlardagi sonlariga qarab tanlash
(tanlanma to'plam, n) ¹⁾**

(misol shartli)

MHOBT	Hududlarlar nomi	(N), bosh to'plam- dagi xo'jalik- lar soni (G)	Bitta kuzatuv davri uchun tanlash foizi, %da	(n), tanlanma to'plamdagi xo'jaliklar soni (G dan), birlikda		
				birinchi kuzatuv davrida	ikkinchi kuzatuv davrida	yil (ikkita kuzatuv davri)da
1735	Qoraqalpog'iston Respublikasi	263986	0,5	1419	1419	2838
	tumanlar va shahar	-	-	-	-	-
1735204	Amudaryo	32185	0,3	97	97	194
1735207	Beruniy	21734	0,4	87	87	174
1735211	Qorao'zak	7771	1,1	85	85	170
1735212	Kegayli	11469	0,8	92	92	184
1735215	Qo'ng'iro't	19431	0,5	97	97	194
1735218	Qanliko'l	5962	1,5	89	89	178
1735222	Mo'ynoq	4570	2,0	91	91	182
1735225	Nukus	8544	1,1	94	94	188
1735228	Taxiyatosh	9094	0,8	73	73	146
1735230	Taxtakopir	5259	1,5	79	79	158
1735233	To'rtko'l	35124	0,25	88	88	176
1735236	Xo'jayli	21394	0,4	86	86	172
1735240	Chimboy	17450	0,5	87	87	158
1735243	Sho'manoy	7147	1,1	79	79	158
1735250	Ellikqal'a	24130	0,4	97	97	194
1735401	Nukus sh.	32722	0,3	98	98	196

¹⁾ Hisob kitoblar har bir tuman, shahar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri kesimida amalga oshiriladi.

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
3-ILOVA

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha tumanlar va shaharlar
ro'yxati, ulardagi faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs tashkil
etgan dehqon xo'jaliklari soni ¹⁾
(bosh to'plam, N)**

(misol shartli)

MHOBT	Hududlar nomi	Yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari soni, birlikda
1735	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2099
	tumanlar va shahar	-
1735204	Amudaryo	388
1735207	Beruniy	33
1735211	Qorao'zak	37
1735212	Kegayli	6
1735215	Qo'ng'iro't	19
1735218	Qanliko'l	6
1735222	Mo'ynoq	89
1735225	Nukus	121
1735228	Taxiyatosh	1
1735230	Taxtako'pir	3
1735233	To'rtko'l	816
1735236	Xo'jayli	89
1735240	Chimboy	85
1735243	Sho'manoy	23
1735250	Ellikqal'a	374
1735401	Nukus sh.	9

¹⁾ Ro'yxat har bir tuman, shahar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri kesimida tuziladi.

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
4-ILOVA

**Yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklarini ularning
tuman va shaharlardagi sonlariga qarab tanlash
(tanlanma to'plam, n)¹⁾**

(misol shartli)

MHOBT	Hududlarlar nomi	(N), bosh to'plam- dagi xo'jalik- lar soni (G), birlikda	Bitta kuzatuv davri uchun tanlash foizi, %da	(n), tanlanma to'plamdagi xo'jaliklar soni (G dan), birlikda		
				birinchi kuzatuv davrida	ikkinchi kuzatuv davrida	yil (ikkita kuzatuv davri)da
1735	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2099	0,5	463	463	926
	tumanlar va shahar	-	-	-	-	-
1735204	Amudaryo	388	13,5	52	52	104
1735207	Beruniy	33	100	33	33	66
1735211	Qora'ozak	37	100	37	37	74
1735212	Kegayli	6	100	6	6	12
1735215	Qo'ng'iro't	19	100	19	19	38
1735218	Qanliko'l	6	100	6	6	12
1735222	Mo'ynoq	89	50,5	45	45	90
1735225	Nukus	121	34,5	42	42	84
1735228	Taxiyatosh	1	100	1	1	2
1735230	Taxtakopir	3	100	3	3	6
1735233	To'rtko'l	816	6	49	49	98
1735236	Xo'jayli	89	50,5	45	45	90
1735240	Chimboy	85	50,5	43	43	86
1735243	Sho'manoy	23	100	23	23	46
1735250	Ellikqal'a	374	13,5	50	50	100
1735401	Nukus sh.	9	100	9	9	18

¹⁾ Hisob kitoblar har bir tuman, shahar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri kesimida amalga oshiriladi.

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari qishloq xo'jaligi
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha Uslubiy nizomga
5-ILOVA

**Tanlanma to'plam ma'lumotlarini oddiy usulda, tanlash foiziga
mutanosib ravishda bosh to'plamga tarqatish hisob-kitobi misoli**
(bug'doy misolida) ¹⁾

(misol shartli)

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar	Hisob-kitoblar	Formulalar
1	(N), tuman bo'yicha bosh to'plamdagi (G) xo'jaliklar soni, birlikda	8544	-	N
2	Bosh to'plamdan (G) tanlanma to'plamga xo'jaliklarni tanlash foizi, %da	1,1	-	w
3	Bosh to'plamdan (G) tanlanma to'plamdagi xo'jaliklarning soni (n), birlikda	94	$3 = 2 \times 1 / 100$	$n = \frac{w * N}{100}$
4	Tanlanma to'plamdagi don ekinlari yalpi hosili hajmining yig'indisi, sentnerda	60,0	-	q
5	Bosh to'plamdagi don ekinlari yalpi hosilining yig'indisi, sentnerda	5454,5	$5 = 4 \times 100 / 2$	$Q = \frac{q * 100}{1,1}$

¹⁾ hisob-kitob jadvali, shuningdek, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, hamda, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari bo'yicha so'rovnomaning boshqa ko'rsatkichlarini hisoblashda ham foydalaniladi.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi faoliyati
tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o‘tkazish bo‘yicha Uslubiy nizomga
6-ILOVA

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari tanlanma to‘plamini shakllantirish va kuzatuvlarni o‘tkazish mexanizmi

Bosqichlar	Amalga oshirish mexanizmi	Mas’ullar
I bosqich	Bosh to‘plam (N) – 1-yanvar holatiga ko‘ra 2 dx shakli “Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risida hisobot” statistika hisoboti ma’lumotlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha ularda faoliyat yuritayotgan barcha dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining sonlari ko‘rsatilgan holdagi tumanlar va shaharlar ro‘yxati shakllantiriladi.	Davlat statistika qo‘mitasi Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
II bosqich	Tanlanma to‘plam (n) – birinchi bosqichda hisoblangan xo‘jaliklar soniga asosan har bir tuman va shahar bo‘yicha dehqon va tomorqa xo‘jaliklarini tanlash amalga oshiriladi.	Davlat statistika qo‘mitasi Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
III bosqich	Mahalla fuqarolar yig‘inini tanlash – hududiy statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi.	Hududiy statistika organlari
IV bosqich	Tayyorgarlik ishlari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasida supervayzerlarni va tuman va shahar darajasida intervyuyerlarni tayinlash va tashrif rejasini tayyorlash.	Hududiy statistika organlari
V bosqich	So‘rov o‘tkazish va ma’lumotlarga ishlov berish – standart dasturiy vosita yordamida planshetda amalga oshiriladi.	Hududiy statistika organlari
VI bosqich	Ma’lumotlarni chop etish va tarqatish – maxsus statistik byulletenlar va to‘plamlar tarkibida tahliliy statistik jadvallar ko‘rinishida amalga oshiriladi va foydalanuvchilarning so‘rovlari, xalqaro tashkilotlar so‘rovnomalari bo‘yicha taqdim etiladi va Davlat statistika qo‘mitasining veb-saytiga joylashtiriladi.	Davlat statistika qo‘mitasi Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi, hududiy statistika organlari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi faoliyati
tanlanma kuzatuvini tashkil etish
va o‘tkazish bo‘yicha Uslubiy nizomga
7-ILOVA

**Tanlanma to‘plamni shakllantirish mexanizmi, yuridik shaxs
tashkil etgan dehqon xo‘jaliklari kuzatuvlarini o‘tkazish**

Bosqichlar	Amalga oshirish mexanizmi	Mas’ullar
I bosqich	Bosh to‘plam (N) – 1-yanvar holatiga ko‘ra 2 dx shakli “Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyati to‘g‘risida hisobot” statistika hisoboti va Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma’lumotlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha ularda faoliyat yuritayotgan barcha yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo‘jaliklarining soni ko‘rsatilgan holdagi tumanlar va shaharlar ro‘yxati shakllantiriladi.	Davlat statistika qo‘mitasi Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
II bosqich	Tanlanma to‘plam (n) – birinchi bosqichda hisoblangan xo‘jaliklar soniga asosan har bir tuman va shahar bo‘yicha yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo‘jaliklarini tanlash amalga oshiriladi.	Davlat statistika qo‘mitasi Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
III bosqich	Tayyorgarlik ishlari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasida supervayzerlarni va tuman va shahar darajasida intervyuyerlarni tayinlash va tashrif rejasini tayyorlash.	Hududiy statistika organlari
IV bosqich	So‘rov o‘tkazish va ma’lumotlarga ishlov berish – standart dasturiy vosita yordamida planshetda amalga oshiriladi.	Hududiy statistika organlari
V bosqich	Ma’lumotlarni chop etish va tarqatish – maxsus statistik byulletenlar va to‘plamlar tarkibida tahliliy statistik jadvallar ko‘rinishida amalga oshiriladi va foydalanuvchilarning so‘rovlari, xalqaro tashkilotlar so‘rovnomalari bo‘yicha taqdim etiladi va Davlat statistika qo‘mitasining veb-saytiga joylashtiriladi.	Davlat statistika qo‘mitasi Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi, hududiy statistika organlari

ПРИЛОЖЕНИЕ
к постановлению Государственного комитета
Республики Узбекистан по статистике
от 19 октября 2022 года № 37

**Методические положения
по организации и проведению выборочного обследования
сельскохозяйственной деятельности дехканских и подсобных хозяйств**

Методические положения по организации и проведению выборочного обследования сельскохозяйственной деятельности дехканских и подсобных хозяйств (далее-Методические положения) являются методическим материалом, содержащим порядок формирования выборочной совокупности дехканских и подсобных хозяйств для организации статистического наблюдения за их сельскохозяйственной деятельностью, расчеты основных изучаемых показателей, а также порядок распространения данных выборочного обследования на генеральную совокупность и применения результатов обследования в расчетах квартальных итогов социально-экономического развития Республики Узбекистан по отрасли сельского, лесного и рыбного хозяйства соответствующего года.

Методические положения определяют основные подходы к организации и проведению сбора оперативных первичных статистических данных в целях формирования информации об объемах производства основных видов продукции растениеводства, животноводства и рыбоводства, поголовья сельскохозяйственных животных и птиц.

